

### BADIIY TAHLILI

*Jabborova Gulrang*

*O'zbekiston Milliy Universiteti O'zbek filalogiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi*

*[gulrangjabborova@gmail.com](mailto:gulrangjabborova@gmail.com)*

**Annatsiya:** Ushbu tezisda milliy ruhning badiiy asarlarda qanday namoyon bo'lishi Abdulla Qahhorning ushbu hikoyasi orqali tahlil qilingan.

**Kirish:** Atoqli adib Abdulla Qahhor ijodi o'zbek adabiyotida alohida ajralib turadi. Sababi, Abdulla Qahhorning har bir asari roman, qissa yoki hikoyalari olsak barchasi; o'tkir psixologik ta'sir kuchiga ega. Ayniqsa, uning ijodida hikoya janri alohida ajralib turadi sababi, Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotida hikoya janri rivojiga salmoqli hissa qo'shgan adib sanaladi. Uning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasi ham shunday ijod namunalaridan biri sanaladi.

Hikoyani tahlil qilish sizga odamlarning o'zini va tajribalarini (o'ziga va boshqalarga) qanday taqdim etishini tushunishga imkon beradi.[1] Ya'ni har bir yozuvchi hikoya yozar ekan, unda aksariyat hollarda ijodkor bevosita o'zi ko'rgan yoki guvohi bo'lgan voqealarni qalamga oladi. Hikoya janri aynan shu xususiyat bilan ham boshqa janrlardan ustunlik qiladi. Har bir millatning o'ziga xos adabiy didi bo'ladi. Arab o'quvchisini hayajonga solgan narsani ingliz o'quvchisi sovuqqonlik bilan qabul qilishi mumkin, fransuz kitobxonini «klassika» deb qabul qilgan asar o'zbek o'quvchisi uchun faxsh va zo'ravonlikdan boshqa narsa emas...[2] Chindan ham xuddi shunday, biroq Abdulla Qahhorning ushbu hikoyasi milliylik me'zonlariga to'laligicha javob bera oladi. Hikoyada adib aynan ayollarning jamiyatdagi o'rnini bo'lmagan, ularga matohga bo'lgandek munosabatda bo'linadigan, o'qishni xohlagan ayollarning bari "buzuq" ayollar sanalgan davrlarini yoritgan. Hikoya bosh qahramoni ham xuddi shunday johillardan biri edi. Hikoyadagi bosh personaj Mulla Norqo'zi jamiyatning biror sohada faoliyat yuritadigan ayol borki, uning ko'ziga foxisha bo'lib ko'rinar edi. Yana uning fikricha, o'n ikki yoshdan keyin paranchi o'ramagan qizdan qo'lni yuvib qo'ltiqqa urish lozim. U erkak kishi bo'lishiga qaramay, kun bo'yi choyxonada atrofiga o'ziga o'xshagan g'iybatchi odamlarni yig'ib ayollardan g'iybat qilgani qilgan edi. Rostini aytganda, dinimizda ham erkaklar ayollardan bir pog'ona ustun deb qaraladi. Ammo, shunday erkaklar ham borki, o'rijalardan ham o'rijidir. Aslida, tinmay din haqida gapiradiganlar, yoki dunyoviy bilimni yetarlicha egallamay turib diniy bilim olmoqchi bo'lganlar ko'pincha shunday johilga aylanishadi. Adib hikoyalarida va dramalarida yana ham yaqqolroq ko'zga tashlanadigan jihatlari belgilari ham bordir. Bu — hayot nafasini, davr ruhini bexato ochish, faqat sezish emas, uni teran anglashi, undan ulug' shaxs, adib sifatida dardlashish. Bu faqat Abdulla Qahhorga tegishli uslub.[3] Chindan ham, Abdulla Qahhor hikoyalarida davr ruhi ham yaqqol sezilib turadi. Hikoyadagi Mulla Norqo'zining ayoli ham yetti qavat paranchi ichida uyda o'tiradi. Nomahramlarga ko'rinish u yoqda tursin ovozi ham eshittirmaydi. Tashqaridan shunday ko'ringan Mulla Norqo'zining ayoli aslida eriga doimiy xiyonat qilib kelgan. Ammo, bunday diyonatli ayolning zino qilishi kimning ham xayoliga kelardi?! Eng pokiza, nomahramlardan hazar qiluvchi farishtamisol Mulla Norqo'zining ayolining dugonasi aslida paranchiga o'rangan yosh yigit edi. Birovning, hali balog'atga yetib ulgurmagan qizini yosh bola qo'lidan mayiz

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-MAY

ANDIJON, 2024

olganini "buzuqlik" sanagan, butun olamga yoygan mullaning ko'zlari esa o'z xotinining kirdikorlarini sira ko'rmasdi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor ushbu hikoyasi orqali insonning qay darajada iymonli ekanligi uning kiyimi orqali belgilanmasligini achchiq misollar yordamida tasvirlagan. Ayollarning qanchalik iymonli- diyonatli bo'lishi ularning ilmiga ham bog'liq ekanini, inson ko'rganiga qarab xulosa chiqarmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Qolaversa, ayollarning o'qishi bu ularning hayosiz ekanini anglatmaydi, aksincha ayol albatta tahsil olishi zarur. Aks holda, o'qimagan johil onalar ilmi insonlarni emas, Mulla Norqo'ziga o'xshagan individlarni jamiyatga yetkazib beradi xolos. Jamiyatning tanazzuli ham aynan shundan boshlanadi. Hikoyaning dolzarbligi va bugungi kun uchun ham muhim ahamiyat kasb etishi aynan shundandir.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hikoya Tahlili: Tushunchasi Va Qo'llanilishi. Fan 2024 .Angel Austin
2. Адабиёт – Саккизинчи Мўъжиза.
3. Олимжон Давлатов.
4. Abdulla Qahhor Ijodi Katta Mahorat Maktabi
5. Mingboyev Ibrohim Tmi "Moliya" Fakulteti 3 Bosqich Talabasi
6. Sh.T.Maxkamova Tmi O'zbek Va Rus Tillari Kafedrasi Dotsent v.b.Www.In-Academy.Uz